



MAMLAKATLAR TANAZZULI VA SABABLARI QUDRAT, FARAVONLIK, VA KAMBAG'ALLIK MANBALARI

Bo'ronov Akobir Baxtiyor o'g'li

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
4-kurs talabasi*

Ismoilova Mahbuba Alijon qizi

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
2-kurs talabasi*

Sayfidinova Zarina Nabijon qizi

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti
4-kurs talabasi*

Anotatsiya : *Ushbu maqolada davlatlarning nima sababdan inqirozlarga yuz tutishi, nima uchun ular o'tasida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan katta farqlarning yuzaga kelishi, mamlakatlar o'rtaсидаги Global tengsizlikning sabablarini va unga nima sabab bolganini aniqlash haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar : *Siyosiy rejim, Nogales shahri, ijtimoiy institutlar, "o'yla va boy bo'l", Enkomienda tizimi, Avtoritar tuzum, Geografik Determinizm, Global tengsizlik nazaryasi, Asosiz nazaryalar, Madaniy omil nazaryasi, Bilimsizlik nazaryasi, Ekstraktiv va Inklyuziv iqtisodiy instutlar.*

Annotation: *This article talks about why countries face crises, why there are big economic, social, political and moral differences between them, and about determining the causes of global inequality between countries and what caused it.*

Key words: *Political Regime, City of Nogales, Social Institutions, Think and Grow Rich, Encomienda System, Authoritarianism, Geographical Determinism,*



Global Inequality Theory, Grounded Theories, Cultural Factor Theory, Ignorance Theory, Extractive and Inclusive economic institutes...

Amerika yoki Yevropa orzusi har bir o'zbek jamiyatida yashayotgan insonlarda bo'lsa kerak ,mening fikrimcha. Shaxsan, o'zimda bunaqa orzu bo'lgan va hozir ham mavjud. Nega aynan bu hududagi davlatlar, nega Afrika yoki Janubiy Amerikadagi davlatlar emas?

1903-1914-yillarda (orada ma'lum uzilishlar bilan) Italiya hukumatini o‘z davrining mashhur siyosiy arbobi J. Jolitti „Sanoat taraqqiyoti tepasida ish haqi yuqori bo‘lgan mamlakatlar turadi“,¹ deb ta’kidlagani menga nima uchun bu oruzlar ko'pchiligidan oramizda mavjud ekanligini bildiradi. Negaki, pul, iqtisodiyot yaxshiroq hayot kechirishi uchun o'zga davlatlarda ishlashga majbur qiladi. Maqolamning mohiyat bu emas ,albatta, Biz yashab turgan bu dunyoda davlatlarning turlicha rivojlanganini, aholisining yillik daromadini, yashash tarzini, boy yoki kambag'aligini bilish bugungi jamiyatning har bitta fuqarosining ustuvor yo'nalishlaridan biri va buni biladigan, aniqlab ,taqqoslab ko'radigan bir nechta tashkilotlar ham tashkil qilingan. Misol uchun ushbu kitobda bir shahar miqyosida davlatlar o'rtaidagi tafavvutlar ochib beriladi. Amerika va Meksika o'rtaida bo'lib olingan Nogales² shahri bu kuzatishlarning yaqqol misolidir. Aqshning Arizona shatatiga qarashli Shimoliy Nogales shahrida bitta oilaning o'rtacha yillik daromadi 30 ming dollarga yetadi. Xolbuki, Mekisikaga qarashli Janubiy Nogalesda esa bitta oilaning daromadi undan uchdan biriga ham teng kelmaydi. Bu bizga nimalarni anglatadi?

1. Aholisining madaniyati va qadriyatlari bir xillagini ammo daromadi har xillagini
2. Geografik determinizm nazaryasining ahamiyati yo'qligini, negaki bu shaharning joylashuv nuqtasi ham, geografik qulayliklari ham bir xil
3. Aholining etnik masalalari ham o'shashligini

Shu bilan birga, ularning biriga o'xshamaydigan tomonlari ham mavjudligini ko'rsatdi. Bular quydagilarda namoyon bo'ladi:



1.Ularda mavjud bo'lgan ijtimoiy institutlarning(bu bizda Fuqarolik jamiyatni deb ataladi) turli xilligini va ularning ishlash prinsiplarining boshqachaligini

2.Davlatlarning boshqaruvi shakli va siyosiy rejimning farqlarini

3.Aholining ijtimoiy-siyosiy huquqlarining qay tarzda ekanligini

Aqsh va Meksika o'rtaqidagi iqtisodiy jihatdan katta farqlarning yuzaga kelishining asosiy sababi ular tashkil etgan fuqarolik institutlar va bu ikki davlatni mustamlaka qilgan davlatlarning bu yerda o'rnatgan ijtimoiy-siyosiy rejimlar bilan o'lchanadi. Misol uchun Avtoritar siyosiy tuzum. Yani bir shaxsni ko'proq hokimiyatda qolishiga intilishi va bu maqsadda armiyadan foydalanishi Davlatlarning tanazzulining eng asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rildi. Meksikada Porifario Dias hukumati avtoritar rejim o'rnatishga ko'p harakat qilgan. Aqshda Vashington, Grand va Eyzenxauer kabi prezidentlar ham harbiy bolishgan. Lekin ular Davlatning konstitutsiyasiga boysunishgan. Mekiskada esa Demokratik ruhdagi konstitutsiya 1917 yilda qabul qilindi. Jamiyat uchun kambag'allikdan badavlatlika erishish yo'lidagi eng zaruriy chora - ish bermaydigan siyosiy rejimni o'zgartirishdir.

Jamiyatni qashoqlashuviga sababchi bo'ladigan va davlatlarni yemiradigan yana bir ijtimoiy-iqtisodiy tizim bu Manopoliyadir. Mekiskada Ispan mustamlakachiligi natijasida hukmron bo'lgan bank, oltin, neft, kumush va boshqa mahsulotlarga o'rnatilgan monopol huquqlar Meksikaning iqtisodini yemirib-bitirgan. Bank sohasidagi monopoliya nima? Aqshda Siyosatchilar davlat taasarufidagi bank monopoliyalarini tashkil qilishga kirishadi. Negaki ular bank tashkil etib, bankdan tushadigan foyda evaziga dostlari va hamtovoqlariga Monopol huquqini tortiq qilardi. Bu boshqa banklarni sinishiga olib kelardi. Bunaqa tizim Mekiskada ham yuz berdi, ammo Amerikancha demokratiya bunday monopoliyani yo'q qildi. Bank tizimidagi monopoloyani sindirgan eng muhim omil Aqshdagi demokratiya edi negaki Fuqarolar siyosatchilarni o'zlari saylardi va Boylik orttirishga kirishgan nomzoddan qutila olardi. Amerika tarixida ushbu "Òyla va boy bo'l" nazaryasi, eng gullagan nazariya yoki siyosiy-iqtisodiy tizim desa ham boladi. Nega? AQSH



hukmron doiralari nafaqat boy badavlat odamlarga balki oddiy fuqarolarga g'oyang bormi, patent³ ol yoki shu g'oyanga olgan patentni sot, agarda puling bo'lmasa tamoyilini ilgari surgan. Misol tariqasida Tomas Edison patent sotish boyicha record òrnatgan 1093ta patent Amerikaning o'zida sotgan. Bu 1093ta biznes g'oya davlatnii òstirmasdan qo'ymaydida. Bu esa Aqshda sog'lom va kam foizli kredit beradigan banklarni paydo bòlidi va rivojlandi. Aqshda mavjud bo'lgan bu tizim, bu konstitusiy va bunaqa boshqaruv jamiyatda siyosiy va ijtimoiy institutlarni taqozo etardi. Bular ishchilarining kasaba uyushmalari, qora tanlilarning o'zlarining jamiyati, plantatsiya ishchilarining haq-huquqlari, ish soatini kamaytirishi va ish haqqini ko'tarish uchun birlashgan uyushmalar, alaloqibat, ijtimoiy institutlarni shakllantirdi. Madomiki, bunday institutlar kishilarining xatti-harakatlari va intilishlariga tasir ko'rsatar ekan ular mamlakatning tarraqiyoti va tannazuli sari yetaklaydi. Shaxsiy iqtidorlar bugungi jamiyatlarning har qanday sohasida muhim, ammo uni yuzaga keltirish uchun sharoit bo'lishi kerak. Nima uchun Ilon Mask Janubiy Afrika Respublikasida Teslani, Space X ni ochmadi, chunki JAR uni amalga oshirish uchun sharoit yo'q va jamiyatda talab ham yoq edi. Amerika esa ana shunday "nihollarni" izlab topib, ularni unib o'stiradi va ulardan Amerikani rivojlantirishda foydalanadi. Bular jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy institutlarsiz amalga oshmasdi.

Siyosiy institutlar nima uchun muhim va u nima uchun jamiyat uchun zarur? Birinchidan, Siyosiy institutlar davlatni diktator yoki monarxiya, jamiyatning zo'ravonlik asosida boshqarilishidan ozod etadi. Bu jarayonda Bisnessmenlar erkinlik, iqtisodiy ijtimoiy huquqlaridan bemalol foydalana oladi. Natijada Jamiyatda iqtisodiy jihatdan yuksalish boshlanadi.

Ikkinchidan, siyosiy institutlar jamiyatdagi hech bir manfaat hukmron bòlishiga yòl qoymaydi. Buning boisi shuki, siyosiy hokimiyat vakolatlari chegaralangan va turli odamlar o'rtasda taqsimlangan bòladi. Xulosa o'rnida, Toms Gobbs aytganidek, ijtimoiy institutlargina, Jamiyatni davlat degan maxluqning hamlalaridan himoya qiladi..



Bugungi kundagi eng qashshoq mamlakatlar o'ttiztaligi tuziladigan bo'lsa, ularning barchasini Tropik Afrikadan topasiz! Nega shunday bu davlatlarning qashoqligining sababi nimada?

Ijtimoiy soha tadqiqotlarining fikricha bu geografik omil (geografik determinizm-davlatlarning joylashuvi bilan bog'liq) nazaryasi bilan bog'liq.

Men buni asosisiz nazarya deb o'ylayman. Negaki, bu davlatlarning foydali qazilmalarini Yaponiya bilan taqqoslaydigan bo'lsak, Yaponiya bunga erishishi uchun bir zilzila sodir bo'lib u afrikaga o'tib qolishi kerak.. Dunyo olmos va oltin zahirasining eng ko'p qismi bu davlatlarga to'g'ri keladi ammo rivojlanish yo'q. Buni fransuz faylasufi Sharl Monteskye shunday talqin qiladi. "ropik Afrikada yashaydigan aholi ko'pincha dangasa bo'lgan va ularda qiziquvchanlik yetishmagan. Oqibatda ishchanlik va yangilika qiziquvchanlik bo'limgani sabab ular kambag'al bo'lib qolgan. Ishyoqmas xalqlarni odatda zolim hukmdorlar boshqargan. Iqtisodiy tanazzul bilan bog'liq siyosiy hodisalar, diktaturalar, avtoritar tuzumlar Tropik hududlarda ko'proq bo'lgan" Bunga qo'shimcha tarzda aytgan bo'lardimki, Tropik Afrika mamlakatlarining aholisda siyosiy ong, ijtimoiy bilim kabi tushunchalar bo'limgan. Ular davlatning siyosatida, boshqarishda umuman rol o'ynamagan. Qaysiki Jamiat o'z davlatida ro'y berayotgan ijtimoiy ,siyosiy hodisalarda ishtirok etmas ekan, bu jamiat hech qachon botqotlikdan chiqolmaydi.. Ko'p faylasuf olimlar davlatlarning tanazzulining sabablaridan biri manaviy qoloqlik, ilmsizlik -madaniy omil nazaryasini takidlaydilar. Buning asosizligini ikkta misolda aytaman.

Birinchisi, yuqorida takidlaganimiz Nogales shahri aholisining dini, urf odatlari, qadriyatlari hammasi bir xil ammo rivojlanishi har xil.

Ikkinchisi, madaniy omil nazaryasining ko'p joylarda ishlamasligiga misol tariqasida Suriya va Misrni olaylik, ko'pgina taqdriqotchilar buyerdag'i kambag'alikni Islom dini bilan bog'lashadi. Ammo, Islom dini va Yaqin Sharqdagi qashshoqlik o'rtaida bog'liqlik borligi haqiqatga u qadar to'g'ri kelmaydi. Bunga Muallif misol tariqasida 1805-1848-yillardagai Muhammad Alining hukmronligini



oladi. Uning davrida davlat boshqaruvi, qo'shin, soliq sistemasida, qishloq xo'jaligidagi islohotlar Misr iqtisodiyotini gurkirab rivojlantirgan, garchi bu yerda Islom hukmronlik qilsada. Men misol tariqasida, Sharqda yuz berib o'tgan ikkta buyuk Renessansni aytolaman. Bularda ham Islom hukmronlik qilardi. Davlatning rivojlanishi uning ichida mavjud bo'lgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotga bog'liq bo'ladi. Ularni rivojlantirmasdan, qoloqlikni, kambag'allikni din bilan bog'lash bu yaxshi bahona bo'lolmaydi.

Jamiyatni rivojlantiruvchi va uning rivojlanishiga qarshilik qiluvchi ko'p narsalar bor, jumladan, Iqtisodiy tarafdan Inklyuziv va ekstraktiv iqtisodiy institutlar. Bular nima?

Misol uchun Koreya miilloddan avvalgi 2333 yildan beri mavjud bo'lgan bu davlati Ikkinci jahon urushidan keyin ikkiga bo'linib ketadi(38 -paralel kenglik bo'yicha Shimolda SSSR tasiri doirasida Shimoliy Koreya, Janubda Aqsh tasiri doirasida Janubiy Koreya) Bu ikkala davlatning madaniyati, dini, qadriyatlari qadimdan bir bo'lgan, Lekin rivojlanish har xil bittasi eng taraqqiy etgan Osiyo yo'lbarsi, bittasi esa eng qashoq davlarlar sarasiga kiradigan "Tropic Afrika ". Buning sabab nima deyilganda -davlatning to'g'ri boshqarilishi va to'g'ri tashkil etilgan Ijtimoiy-iqtisodiy institutlar degan bo'lardim. Misol uchun Janubiy Koreya Inklyuziv iqtisodiy institutlarni tashkil qila oldi. Unga nimalar kiradi:

1. Xususiy mulk daxlsizligi
2. Adolatli sud tizimi (Sud tizimida erkinlikni taminlash masalasi va uni detsintrizatsiyalash- davlat nazoratini yo'qotish)
- 3.Barcha uchun bir xil sharoitlar yaratish masalasi. Bunday jamiyatda yashayotgan aholi o'zining huquqlaridan va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotidan bemalol foydalana oladi. Eksraktiv iqtsodiy institular Diktaturaga, birovning mulkini boshqaga olib beradigan, siyosiy rejim bo'yicha aholini qo'rquvda ushslashga asoslangan Shimoliy Koreyadir.

Xulosa:



Bugun har bitta davlatning o'z dasturi mavjudki, bu orqali davlatlar o'zining yaqin va uzoq yillardagi istiqbollarini ko'zlab amalga oshiradi. Mamlakatlarning bu dasturlari shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, ular o'zining geografik determinizimiga ham madaniy omillariga ham suyanib qolmasligi kerak. Negaki, geografik qulay muhitda joylashgan jamiyatlardagi rivojlanish, bunday imkoniyatga ega bo'limgan jamiyatlarga qaraganda ancha pastroq bo'ladi. Chunki, ularning aholisida yaratuvchanlik, qiziquvchanlikning o'mida dangasalik va tanbalik bo'ladi. Qaysidir Jamiyat davlatning hayotida muhim ahamiyat kasb etmas ekan bunday jamiyatdan rivojlanish kutish bu katta xatodir. Davlat rivojlanishi uchun jamiyatdagi oz guruhning say-harakatlari kamlik qiladi. Inglizlarning bir ajoyib maqoli bor." MANY HANDS MAKE LIGHT WORK" ko'p qo'lllarina ko'p ishlar qiladi. Aholining ko'pchiligining haq-huquqlari, ularning davlat hayotidagi rolini oshirish evaziga, fuqarolarni davlatlardagi o'zgarishlarga befarqligini kamaytirish orqaligina mamlakatlarni tanazzuldan qutqarib qolish mumkin. Buning uchun birinchi navbatda, jamiyatning manaviy hayotini mustahkamlash va uning tasirini kuchaytirish. Buni uddalasak, insonlarda ijtimoiy-siyosiy ongni yuzaga keltiramiz. Bu esa bugungi jamiyatimizning eng dolzarb muomolaridan biridir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. "Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari" Daron Ajemo'g'li, Jeyms Alan Robinson,"New York " Times
2. 9 -sinf jahon tarixi ,0'QITUVCHI“ NASHRIY OT-MATB AAIJODIY UYI TOSHKENT - 2019 84bet
3. www.kitoblar.dunyosi.uz